




ISTE'MOL BOZORI

(2019 yil yanvar - noyabr*)

Chakana savdo aylanmasi joriy yilning yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 12.8 % ga oshdi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 13.7%ni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 86.3 % ni tashkil etdi.

Chakana savdo aylanmasi tarkibi (foizda)



* dastlabki ma'lumot




JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Jami chakana tovar aylanmasi

	2018 yil qiymati (mln.so'm)	Ulushi (%)	2019 yil qiymati (mln.so'm)	Ulushi (%)	O'sish sur'ati
<i>Jami chakana tovar aylanmasi</i>	4175777,2	100,0	5328318,4	100,0	112,8
<i>Yirik korxonalar</i>	375861,7	9,0	730662,4	13,7	171,9
<i>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik</i>	3799915,5	91,0	4597656,0	86,3	107,0

Chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlarining oylar kesimida dinamikasi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, foizda)






JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**2019 yil yanvar - noyabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini
qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi (mlrd. so'm)**



Viloyatning barcha hududlarida chakana savdo aylanmasi hajmining ko'tarilishida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi:


Jizzax shahrida 1389,5 mlrd. so'm, hamda Sharof Rashidov tumani 855,7 mlrd. so'm, Zomin tumani 746,4 mlrd. so'm va Baxmal tumani 645,0 mlrd. so'mlik chakana savdo aylanmasi amalga oshirildi.



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI




**2019 yil yanvar - noyabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini
qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasining o'sish
sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, % da)**



Viloyatning ko'p hududlarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari kuzatildi. Xususan, yuqoriroq o'sish sur'atlari baxmal tumani (140,7 % ga), Sharof Rashidov tumani (132,6 % ga) Jizzax shahri (110,6 % ga), Forish tumani (109,9 % ga), Paxtakor tumani (106,0 % ga), nisbatan yuqori bo`limgan o'sish suratlari G`allaorol tumani (104,0 % ga), Yangiobod tumani (104,9 % ga), Mirzacho'l tumani (104,6 % ga) o'sish kuzatildi. Zomin tumanida 98,2 % ni tashkil etdi.



*Hududlarning jami chakana savdo tovar
aylanmasidagi ulushi, % da*




Viloyat chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Jizzax shahri (26,1 %), Zomin tumani (14,0 %), Sharof Rashidov tumani (16,1 %), Baxmal tumani (12,1 %) va G'allaorol tumani (7,3 %) ko'rsatkichlari bilan ijobjiy ta'sir ko'rsatdi.



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi, ming so'mda




Umumi ovqatlanish korxonalarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,5 % ga oshib, 3908,1 ming so'mni tashkil etdi. (2018 yil yanvar-noyabr oylarida 3127,7 ming so'mni tashkil qilgan edi.) O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatgichlari Jizzax shahri (7912,8 ming so'm), Zomin tumani (4630,0 ming so'm) Sharof Rashidov tumani (3954,3 ming so'm) va Paxtakor tumanida (3486,7 ming so'm) kuzatildi.



JIZZAX VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



Umumiy ovqatlanish korxonalarining tovar aylanmasi (mln. so'm)



Umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi joriy yilning yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 13,2 % ga oshdi. Umumiy ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi umumiy hajmida eng katta ko'rsatkich Jizzax shahrida 44789,6 mln so'm, hamda Forish tumani 18375,9 mln so'm, Sharof Rashidov tumani 14902,9 mln so'mlik ko'rsatkichi bilan salmoqli xissa qo'shgan.




**Umumiy ovqatlanish korxonalarini tovar aylanmasining o'tgan yilga
nisbatan o'sish sur'ati, % da**



Viloyatning ko'p hududlarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari kuzatildi. Xususan, eng yuqori o'sish sur'atlari Forish tumanida (2,1 martaga), hamda Mirzacho'l tumanlari (5,3 % ga), Paxtakor tumanlari (5,3 % ga), Zomin tumani (5,0 % ga), nisbatan yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Yangiobod tumanida (95,7 % lik) natijaga erishilgan.



Jami chakana savdo aylanmasida kichik tadbirkorlikning ulushi



Kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 7,0 % ga oshdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmining 86,3 % ini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari umumiyl tovar aylanmasi hajmining 167,0 mlrd. so'mini norasmiy sektor, 298,2 mlrd. so'mini uyushmagan savdo tashkil qildi. Jami norasmiy sektorning chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 159,4 % ni tashkil etdi.



ULGURJI TOVAR AYLANMASI

2019 yilning yanvar-noyabr oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 1 928,6 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning shu davriga nisbatan 112,3 % ni tashkil qildi.


2019 yil yanvar-noyabr oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi

	Ulgurji savdo tovar aylanmasi, mlrd. so'mda	O'sish sur'ati
<i>Jizzax viloyati</i>	1928,6	112,3
- shahar:		
<i>Jizzax sh.</i>	794,1	110,0
- tumanlar:		
<i>Arnasoy</i>	41,9	129,9
<i>Baxmal</i>	95,7	90,4
<i>G'allaorol</i>	46,2	104,4
<i>Sharof Rashidov</i>	292,5	113,4
<i>Do'stlik</i>	103,2	112,3
<i>Zomin</i>	183,2	109,5
<i>Zarbdor</i>	100,5	118,5
<i>Zafarobod</i>	49,1	149,6
<i>Mirzacho'l</i>	55,1	164,3
<i>Paxtakor</i>	57,3	128,8
<i>Forish</i>	50,7	108,9
<i>Yangiobod</i>	59,1	108,7

Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Yangiobod (108,7 %), G'allaorol (104,4 %) va Baxmal tumanlarida (90,4 %) kuzatildi.



Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdodagi ulushi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,8 % ga oshib, 1111,2 mlrd. so'mga yetdi

va umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 57,6 % ni tashkil qildi.

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi boshlig'i*

*Murodulla Ibragimov
tel: (0371) 230-83-45*